

BOLAJON

Buxoro tuman 39- Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Latipova Soliha Jalolovna

Baxt va omad sari ochiqdir yo'ling
Hayot mevasisan beg'ubor ko'ngling
Ollohim asrasin shu murg'ak joning
Kelajaging nurli bo'lsin bolajon

Sen bilan qishda ham qablarda bahor
Hayot qonuni bu etmaymiz inkor
Tingla bolam senga bir o'gitim bor
Odob ila ilm bo'lsin yo'ldoshing.

Sinovlarga boydir sening hayoting
Dovrug'i dostondek bo'lsin har oning
Ota-onang doim sening qalqoning
Qalqonga qalqon, bo'lgin bolajon.

Kelajaging doim porloq bolajon
hayotimiz sensiz ovloq bolajon
G'ururing tog' bo'lsin mayli bolajon
Lek oyog'ing yerdan uzma hech qachon.